

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 1 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 6, НОМЕР 1

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 6, ISSUE 1



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№1 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2023-1>

Бош муҳаррир:

Тўхтасинов Илҳом

п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:

Тухтасинов Илхом

д.п.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:

Tuhtasinov Ilhom

DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммаед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддиқова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Юсупов Ойбек

масъул котиб, доцент (Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр

академик. (Узбекистан)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Куренов Рахыммаед

к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Жеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Балтабоев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Сиддиқова Ирода

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Юсупов Ойбек

отв. секретарь, доцент (Узбекистан)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli

Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. scien. (Georgia)

Yusupov Oybek

Ass. prof. (Uzbekistan) - Senior Secretary

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,


Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

1. Нурмуратов Анвар Яхшибаевич МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ИМКОНИЯТ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ.....	5
2. Yusuf Nurmuhammedov Shakarboyevich, Bahodir Nurmuhammedov Shakarboyevich QO‘SHRABOT TUMANIDAGI AYRIM TOPONIMLARNING ETIMOLOGIK VA SINTAKTIK TALQINI.....	12
3. Mukhayyo Fayzullaeva SYMBOLIC REPRESENTATIONS OF RELIGIOUSLY MARKED ALLUSIONS IN THE LITERARY TEXT.....	18
4. Сапарова Мохира Файзуллаевна ПЕРЕВОДЧЕСКОЕ ИСКУССТВО, В ЧАСТНОСТИ, ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЗНАНИЙ О ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПЕРЕВОДЕ.....	24
5. Dilnoza Baxodirovna Buronova MUALLIF BADIY USLUBINI O‘RGANISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI.....	32
6. Abduraxmonova Nilufar Zaynobbiddin qizi, Raximov Xasanboy Komiljonovich O‘ZBEK TILI SENTIMENT ANALIZNING NAZARIY MASALALARI.....	36
7. Elov Botir Boltayevich, Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, Xusainova Zilola Yuldashevna NLPNING ZAMONAVIY ALGORITMLARI VA KONSEPSIYALARI.....	42
8. Xurshida Narxodjayeva RASMIY MULOQOT MATNINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.....	58
9. Ulikova Mavluda TILSHUNOSLIKDA KONSEPT TUSHUNCHASINI AKS ETTIRISHNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI.....	63
10. Абдувалиев Маҳаматжон Арабович КОНЦЕПТЛАР ТАДҚИҚИДА ЛИНГВИСТИК КОНТЕКСТНИНГ ЎРНИ.....	68
11. Эргашева Зиёда Абдурасуловна КАУЗАЛЛИК ВА СУБЪЕКТИВЛИК МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ВОҚЕЛАНИШИ.....	74
12. Мардонова Ситора Мардоновна СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГЛАГОЛОВ, ВХОДЯЩИХ В 4 КАТЕГОРИИ В ДРЕВНЕАНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ.....	78
13. Аманов Рахмон Аслонович, Шарипова Латифа Хакимовна БАЛОҒАТ ЁШИДАГИ ЎҚУВЧИ ҚИЗЛАРДА ТЕМИР ТАНҚИСЛИК КАМҚОНЛИГИ ВА ЯШИРИН ТЕМИР ТАНҚИСЛИК КАМҚОНЛИК КЛИНИКАСИ ВА ДИАГНОСТИКАСИ.....	84
14. Хамидов Лутфулло Паизуллаевич БАНК МАТНЛАРИНИНГ ТИПОЛОГИЯСИНИ ЯРАТИШ МУАММОСИ.....	88
15. Туракулова Зарина Мардонкуловна УСТАРЕВШАЯ БИБЛЕЙСКАЯ ФРАЗЕОЛОГИЯ КАК ЧАСТЬ ПАССИВНОГО ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОГО СОСТАВА РУССКОГО ЯЗЫКА.....	92
16. Халимова Фирюза Рустамовна КОНЦЕПТ МАЙДОН ТИЗИМИ СИФАТИДА.....	97
17. Воҳидов Абдувахоб ТОЖИК ТИЛИНИНГ САМАРҚАНД ШЕВАСИДА ЙАК(БИР) СОНИ БИЛАН ҲОСИЛ ҚИЛИНГАН ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАР ТЎҒРИСИДА.....	102
18. Азимова Сайёра Хусанбоевна ИЗУЧЕНИЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКОГО ПОДХОДА НА ОСНОВЕ КОММУНИКАТИВНОЙ ТЕОРИИ ЯЗЫКА.....	108

19. Tair Akimov XITOIY TILIDAGI IBORA, MAQOL VA MATALLARNING QIYOSI TAHLILI.....	114
20. Maftuna Ibodullayeva Habibullayevna TEACHING INTERACTIVE WAYS OF CONDUCTING RESEARCH TO THE STUDENTS OF HIGHER EDUCATION.....	122
21. Fayzullayeva Dilnoza Ubaydullayevna INCREASING THE ACTIVITY OF STUDENTS IN EDUCATION THROUGH THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES.....	129
22. Nurislom Iskandarovich Xursanov DRAMATIK DISKURSNING SOTSIOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI.....	133
23. Ganiyeva Shodiya Azizovna FRAZEOLOGIK VARIANTLILIK.....	142



ISSN: 2181-9297


www.tadqiqot.uz

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Nurislom Iskandarovich Xursanov

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
katta o'qituvchi Ingliz filologiyasi kafedrasini,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti
E-mail: nurislomkhursanov92@gmail.com
<https://orcid.org/0000-0001-5714-2745>

DRAMATIK DISKURSNING SOTSIOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7680567>

ANNOTATSIYA

Mustaqillikdan keyingi davrda o'zbek tilining nufuzi va mavqei yanada oshirish chora-tadbirlari dunyoning rivojlangan tillari tajribasidan kelib chiqib belgilanmoqda. Zamonaviy tilshunoslikning ananaviy tilshunoslikdan farqi shundaki, u til/nutqini o'ziga yaqin bo'lgan deyarli barcha gumanitar sohalar bilan birga, integratsiyalashgan holda, o'rganishni talab qiladi. Mazkur maqolada dramatik asarlar diskursining (nutqining) sotsiolingvistik va pragmatik xususiyatlari, jahon tilshunoslik bosqichlari, o'zbek va ingliz tillarida yaratilgan dramalar tilida uchrovchi til birliklari borasida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: dramatik diskurs, diskurs tahlili, lingvistik, qiyosiy-tarixiy metod, antroposentrik paradigmi.

Nurislom Iskandarovich Khursanov

Doctor of philosophy (PhD) in Philological Sciences,
Senior Teacher Department of English Philology,
Alisher Navoiy Tashkent State University of
Uzbek Language and Literature
E-mail: nurislomkhursanov92@gmail.com
<https://orcid.org/0000-0001-5714-2745>

SOCIOLINGUISTIC FEATURES OF DRAMATIC DISCOURSE

ABSTRACT

In the post-independence period, measures to further increase the prestige and status of the Uzbek language are being determined based on the experience of the world's developed languages. The difference between modern linguistics and traditional linguistics is that it requires an integrated study of language/speech along with almost all humanistic fields close to it. This article talks about the sociolinguistic and pragmatic features of the discourse (speech) of dramatic works, the stages of world linguistics, the language units found in the language of dramas created in Uzbek and English languages.

Keywords: dramatic discourse, discourse analysis, linguistics, comparative-historical method, anthropocentric paradigm.

Нурислам Искандарович Хурсанов

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам,
старший преподаватель Кафедра английской филологии,
Ташкентский государственный университет
узбекского языка и литературы имени Алишера Навои
E-mail: nurislomkhursanov92@gmail.com
<https://orcid.org/0000-0001-5714-2745>

СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДРАМАТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА

АННОТАЦИЯ

В период после обретения независимости определяются меры по дальнейшему повышению престижа и статуса узбекского языка на основе опыта развитых языков мира. Отличие современной лингвистики от традиционной лингвистики состоит в том, что она требует комплексного изучения языка/речи наряду с почти всеми близкими к ней гуманистическими областями. В данной статье говорится о социолингвистических и прагматических особенностях дискурса (речи) драматических произведений, этапах мирового языкознания, языковых единицах, встречающихся в языке драм, созданных на узбекском и английском языках.

Ключевые слова: драматический дискурс, дискурсивный анализ, лингвистика, сравнительно-исторический метод, антропоцентрическая парадигма.

Kirish

Tilshunoslik tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak u uch bosqichga bo'linganligini guvohi bo'lamiz. Bulardan birinchisi qiyosiy-tarixiy bosqich bo'lib, u XIX - asrlarni o'z ichiga olib qiyosiy-tarixiy metod orqali qiyoslanib o'rganiladi. Ikkinchi bosqich XX-asr tilshunosligida olib borilgan izlanishlarni o'z ichiga olib sistem-struktur boshqich deb ataladi va uning tadqiqot markazida so'z turadi. XX asr oxirlaridan boshlab antroposentrik paradigma to'g'risidagi qarashlarning yetakchilik qilib kelishi bir qator fanlararo sohalar, jumladan lingvopragmatikaning paydo bo'lishi uchun zamin hozirladi. Bugungi kunda bunday nazariy qarashlarni rivojlantiruvchi monografik tadqiqotlar yuzaga keldi (Safarov, 2008; Raupova, 2012; Normurodava, 2012; Pocheshov, 1989). Antroposentrik bosqich XXI-asrga kelib rivojlandi va uchunci bosqich deb etirof etilmoqda (Sayfullayev va b., 2010; Ernazarova, 2018). Antroposentrik bosqich, boshqa so'z bilan aytganda antroposentrik tilshunoslik tilde inson omili va uning teskarisi inson nutqida tilning qanday yuzaga kelishi bilan bog'liq bo'lgan qator, o'z javobini kutib turgan dolzarb savollarni tilshunoslar oldiga qo'ldi.

Tilshunoslik va pragmatika fanlarining ajralmas qismi hisoblangan diskurs (diskursologiya) atamasi yuqorida keltirilgan savollarga javob topish, uni o'rganish, ona tilining rivojlanish omillari tadqiq etishga bir muncha keng yo'l ochdi. "Diskurs" atamasiga berilgan ta'riflar bir-birini to'ldirishiga qaramasdan unga hanuz aniq bir ta'rif berilgan emas. Bunga sabab uning bir qancha tilshunoslik va falsafa fanlari bilan uvziy bog'likligi, har jihatdan vaziyatga monan o'zgarishini ko'rsatishimiz mumkin. Diskur atamasi birinchi marta amerikalik tilshunos olim Zellig Xarris tomidan o'tgan asrning 60-yillarida fanga kiritilganligi olimning "Diskurs tahlili" nomli maqolasidan ko'rish mumkin (Harris, 1970). Albatta keltirilgan ta'riflar tugal va yakuning emas. Bunga misol qilib shveysariyalik tilshunos olim Patrik Serio diskurs atamasi bo'yicha 8 ta'rifni keltirishini ko'rishimiz mumkin (Serio, 2012). Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra diskurs, matn, dialog, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida sodir bo'ladigan kommunikativ hodisa kabi tushunchalarning umumiy toifasini anglatishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, diskurs - bu ma'lum bir jarayon bo'lib, unda suhbatdoshlar o'rtasida mustaqil ravishda og'zaki yoki yozma shaklda axborot yaratiladi va almashiladi.

Adabiyotlar sharhi

Diskurs tushunchasiga berilgan ta'riflardan shuni aytish mumkinki, diskurs aniq bir ta'rifga ega emas. Shuning bilan birga olimlar tomonidan berilgan barcha ta'riflarni ham inkor qilib bo'lmaydi. Shunday ta'riflardan biri tilshunos olib V.Karasikga tegishlidir. U dirkurs atamasini muloqot vaziyatiga cho'mgan matn deb keltiradi (Karasik, 2000). Diskurs, ya'ni nutqning ikki ko'rinishi mavjuddin: ular og'zaki va yozmadir. Har ikkalasi o'zida biro lam ma'no, kommunikativ maqsadni ifodalab kelishi mumkin. Mazkur ikki ko'rinishdan kelib chiqib dirkurs tushunchasiga bir nechta ta'riflarni keltirishimiz mumkin. Jumladan, golland tilshunosi Teun van Deyk diskursda quyidagi ta'rifni beradi: "Diskurs - bu nutq oqimi, uning doimiy harakatidagi til, tarixiy davrning barcha xilma-xilligini, individual va ijtimoiy xususiyatlarni o'ziga singdirgan nutqning tabiiy-ijtimoiy shaklidir (Dijk, 1998). Olimning ta'rifidan kelib chiqib, diskursda adresant va adresatlarning nutqi muloqot vaziyatida shakllanadi degan xulosa qilishimiz mumkin. Tilshunos olim T.M. Nikolaeva o'zining "Matn lingvistikasining qisqacha lug'ati" asarida diskurs tushunchasiga shunday ta'rif beradi: "Diskurs - matn lingvistikasining ko'p qiymatli atamasi bo'lib, bir qator mualliflar tomonidan deyarli omonim ma'nolarda qo'llaniladi. Ulardan eng keng tarqalgan shakllari izchil matn, matnning og'zaki-so'zlashuv shakli, dialoglar, monologlar, ma'nosi jihatda bog'liq bo'lgan gaplar guruhidir" (Nikoloyeva, 1978).

O'rganilgan adabiyotlarda kelib chiqib diskurs - milliy, umuminsoniy va individual, shaxsiy mentalitet va madaniyat shakllarini o'zida aks ettiruvchi aks ettiruvchi, falsafa va tilshunoslik fanlarining ajralmas tarkibiy qismi ekanligini takidlash mumkin.

Rus tilshunos olimi Yu.S.Stepanov o'zining "Muqobil dunyo, diskurs, fakt va sabab asoslari" nomli tahliliy asarida diskurs alohida mentalitetni, mafkurani ifodalash uchun tildan maxsus foydalanish usuli degan fikrli keltiradi (Stepanov, 1995). Olim bunga sabab qilib har bir til o'z tabiiy xususiyatlaridan kelib chiqib turli grammatika va so'z yasash strukturasi egaligini va bu o'z mavbatida muloqot jarayonida so'zlashuvchilar muloqot vaziyatiga moslashishini keltiradi. Moldovalik tilshunoslar, V.Txorik va N.Fanyan, diskursni subyektiv omil deb ataydilar va subyektiv omilni hajm jihatdan aniq belgilab/o'lchab bo'lmasligini takidlashadi (Tkhorik & Faniān, 2006).

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, diskurs tizimlashtirishi qiyin bo'lgan munosabatlarning murakkab tuzilishi bilan tavsiflanadi.

"Diskurs" atamasi ma'no jihatdan "matn"ga yaqin, ammo, diskurs linivistik moloqotning dinamik, vaqt bo'yicha yuzaga keladida xarakterini namoyon qiladi (Raupova, Normurodova, & Khursanov, 2021). Matn esa diskursdan farqli ravishda, eng avvalo, statik obyekt, lingvistik faoliyat natijasi sifatida tasavvur qilinadi.

Shu o'rinda rus tilshunosi N.Artyunovanning diskursga bergan ta'rifiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u diskursning ekstralingvistik, pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik va boshqa omillar bilan birgalikda izchil matn sifatida ko'rinishini kuzatishimiz mumkin (Арутюнова, 1990). Zero, tilshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida nutq va matn olinishini hisobga olsak olimaning bergan ta'rifi bir muncha umumiy va keng qamrovli ekanligiga guvoh bo'lamiz. Nutq va matn yuzaga kelishi uchun unga mavzu, ya'ni muhokama qilinadigan holat yoki ma'lumot talab etiladi. O'z navbatida holat va ma'lumot ekstralingvistik, pragmatik, ijtimoiy-madaniy, kognitiv, psixologik va boshqa omillar negizida yuzga kelishini aytish mumkin.

"Diskurs" va "matn" tushunchalarini o'rtasidagi chegarani izlar ekanmiz, V.Karasikning "diskurs - muloqot vaziyatiga cho'mgan matn" (Karasik, 2004), N.Artyunovanning "matn" inson tumush tarziga to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmagan muloqot shakli degan ta'riflarga duch kelamiz (Арутюнова, 1990).

Nutqni jarayon sifatida o'rganish faqat so'zlovchi va tinglovchi orasidagi o'zaro diskurs (fikir almashish), savolga yarasha javob berish - holatidagina tadqiq etilishi mumkin. Shu bois XX asrning oxirlarida tilshunoslikning yangi bir tarmog'i - diskursologiya nutqiy muloqotni tadqiq etuvchi fan sifatida shakllandi. Tadqiqotchilar nutq sathining maksimal birligi masalasida abzasni alohida birlik sifatida ajratishga shubha bildirishadi. Chunki abzasning shakllanishi, ko'pincha, sub'yektiv, muallifning uslubi, grafik qoidalar bilan bog'liqdir. Bizningcha, bunday birlik darajasiga faqatgina diskurs ko'tarilishi mumkin (Safarov, 2006). Diskurs bajarayotgan kommunikativ vazifasi jihatdan

tizimlashgan va muloqot vaziyatiga moslashgan nutqiy qurilmadir. Shakl va vazifa jihatidan muvofiqlashuv diskursni boshqa birliklardan farqlash imkonini beradi (Thornborrow, 1995; Safarov, 2006). Shuni yodda tutish zarurki, diskurs nazariyasi va tilshunoslikning bir tarmogʻi boʻlib, tahlil yoʻnalishida umumlingvistik metodlarni qoʻllash imkoniyatlarini izlab toppish ehtiyoji mavjudligini koʻrsatadi. Darhaqiqat, yuqorida keltirilgan tilshunoslarning mulohazalari oʻrinlidir.

Tilshunoslikda diskurs turlalar tadqiqot obyektlariga qarab turlicha boʻlishi mumkin. Masalan, siyosiy mavzudagi matnlar uchun siyosiy diskurs, media sohasiga oid mabaalarni tadqiq etish uchun media diskursi, tibbiyot sohasiga oid mabaalarni tadqiq etish uchun tibbiy diskurs, monologik, diologik, xususiy, sotsial diskurs turlari mavjud (Davletnazarova, 2021). Ushbu qator yana davom ettirish mumkin. Mazkur tadqiqotda biz dramatik asarlarning diskursiv tahliliga toʻxtalmoqchimiz. Oʻz mavbatida ushbu tadqiqot dramatik diskurs ustida olib boriladi.

Eng avvalo “drama” atamasiga qoʻxtalsak. Drama (lot. *drāma*, *drāma*) soʻzi toʻgʻridan-toʻgʻri yunon tilidan olingan boʻlib, “harakat” yoki “oʻyin” degan maʼnoni anglatadi (Francis, 2023). Drama - bu spektakl yoki film koʻrinishida tasvirlanadigan badiiy adabiyotning oʻziga xos usulidir. S.I.Ojegov rus tilining izohli lugʻatida dramaga quyidagicha taʼriflarni beradi: 1. Dialogik shaklda yozilgan va sahnada aktyorlar tomonidan ijro etish uchun moʻljallangan badiiy asar. 2. Oʻtkir syujetli, ammo tragedik yakunga ega boʻlmagan badiiy asar (Ušakov & Vinokur, 2001). Keltilgan taʼriflar bir-biriga mazmun jihatdan bir muncha zid boʻlishiga qaramasdan, ular bir birini toʻldirib turadi.

Boshqa rus tilshunosi, adabiyotshunos V.E.Xalizev oʻzining “Drama sanʼat hodisasi sifatida” asarida dramaturgiyani oʻziga xos mazmunga ega adabiy-badiiy shakl sifatida qaraydi (Xalizev, 1978). Uning aytishicha, voqelik hodisalarining maʼlum bir doirasi dramaturgiya deb ham ataladi, dramatik adabiyotning janrlaridan biri, sahna sanʼatining xilma-xilligi, asar personajlari xatti-xarakatlarini aktyorlar tomonida verbal va noverbal vositalarining moxirona uygʻunlashtirilgan holda tomoshabinga yetkazish orqali yuzaga kelgan voqelik deyish mumkin.

Metodlar

Tadqiqotda qoʻyilgan muammoni yoritishda tilshunoslikdagi tavsiflash, qiyoslash, tasniflash, kontekstual, lingvopragmatik, lingvokulturologik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Soʻz drama ustida borar ekan, u birinchi navbatda, muallif uchun tashqi dunyoni aks ettiradi, harakatlar, nizolar, odamlar oʻrtasidagi munosabatlarni oʻzida jamlashini keltirish mumkin. Drama boshqa adabiy janrlardan farqli ravishda hikoya emas, balki dialogik shaklga ega.

Quyida baʼzi drama turlari (janrlari) keltirilgan:

1) **tragediya** - dramaning bu turida baxtsiz hodisa, jinoyat yoki tabiiy ofat kabi katta kulfatlar, halokat va qaygʻuga sabab boʻlgan voqealar tasvirlanadi (McEvoy va b., 2009);

2) **drama** (janr) - bu drama turi asosan odamlarning shaxsiy hayotini aks ettiradi, lekin uning asosiy vazifasi kimnidir taxqirlash emas, balki shaxsni jamiyat bilan dramatik munosabatlarida tasvirlashdir (Kifayat Ullah, 2020);

3) **melodrama** - oʻtkir intriga, boʻrttirilgan emotsionallik, ezgulik va yomonlik oʻrtasidagi keskin qarama-qarshilik, axloqiy va ibratli tendentsiyaga ega pyesa;

4) **komediya** - vaziyatlar va harakatlar kulgili shakllarda taqdim etiladigan yoki komiks bilan singdirilgan drama turi (baʼzi dramatik asarlar tragedik-komediya shaklida boʻladi, unda qahramon fojiasi tomoshabinlarga kulgi, zavq ulashadi);

5) **vodevil** - koʻngilochar intriga, kuplet qoʻshiq va raqslarga ega yengil spektakl;

6) **fars** - oʻzining hajviy, koʻpincha satirik yoʻnalishi, realistik konkretligi, erkin fikrlashi bilan ajralib turuvchi va buffonlik bilan toʻla xalq teatrining bir turi.

Maʼlumki, dramatik asar qatʼiy belgilangan tuzilishga ega izchil matndir. U oʻzgaruvchan matn tarkibiy qismlarni oʻz ichiga oladi, har bir qismoʻz maqsadiga egaligi birlan bir-biridan farq qiladi. Bu qismlarni bir-biridan ajratib olishni osonlashtirish maqsadida dramalar pardalar/qismlarga ajratilgan holda yoziladi. Shu sababli dramatik asarlarni qatʼiy belgilangan tuzilishga ega izchil matn desak mubolagʻa boʻlmaydi. Dramatik matn quyidagi qismlarni oʻz ichiga olishi mumkin: 1) Qahramonlar roʻyxati - asarning asosiy matnidan oldin joylashgan. Unda, agar kerak boʻlsa, qahramonning qisqacha tavsifi, xarakteristikasi, xul-atvori, asarda belgilangan roli beriladi; 2) Tashqi mulohazalar - harakat, vaziyat, personajlarning tashqi koʻrinishi va drama davomida personajlarning

positsion o‘rin almashishi belgilandi. 3) Replikalar - qahramonlar tomonida aytiladigan so‘zlar. Replikalardan oldin aktyorning ismi yozilishi va ichki izohlarni o‘z ichiga olishi mumkin (unda qahramonlar o‘z nutqini qanday ijro etishi, qaysi ruhiy holatda bo‘lishi keltiriladi). 4) Ichki remarkalar - tashqi remarkalardan farqli o‘laroq, ular qahramon tomonidan takroriy talaffuz paytida sodir bo‘ladigan harakatlar yoki talaffuz xususiyatlarini qisqacha tavsiflaydi.

Har qanday dramatik asar sahna epizodlariga bo‘linadi hamda uning epizodlarga bo‘linishi turli yo‘llar bilan amalga oshiriladi. Dramada tasvirlangan voqelikni sahna orqali jonlantirish uchun 17-19-asrlar Yevropa dramaturgiyasi spektakl sahna ko‘rinishlarini bir-birini to‘ldiradigan bir necha va uzun sahna epizodlariga asoslangan holda sahnalashtirgan. Bunga yorqin misol qilib Shekspir dramalarini olishimiz mumkin.

Shuni ham ta’kidlashni joizki, agar dramani adabiyotning bir turi sifatida ajratadigan bo‘lsak, unda bu farqni etarli darajada adekvat asosda, ya’ni obyektiv va subyektiv usullar bilan idrok etilishi mumkin bo‘lgan harakat yoki konflikt asosida qurish mumkin. U inson ongida yuzaga kelgan, hayotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilgan maqsadli g‘oyalarni keng jamiyatga yetkazib berish yo‘lidir.

Dramani adabiyotning o‘ziga xos turi sifatida dramaturgiyasini qat’iy adabiy mulohazalar bilan emas, balki o‘ziga xos badiiy mulohazalarga bog‘liq bo‘lgan sahna ko‘rinishi, aktyorlik, mizanssenna, sahna ko‘rinishi, musiqa va boshqalar kabi ifoda vositalaridir. Rus tilshunosi A.Zinkosvskaya dramani adabiyotning o‘ziga xos turi sifatida qat’iy adabiy mulohazalar bilan emas, balki o‘ziga xos badiiy mulohazalarga, ya’ni aktyorlik, mizanssenna, sahna ko‘rinishi, musiqa kabi ifoda vositalariga bog‘liq bo‘lgan teatrallikdir deb ta’riflaydi (Zinkovskaya, 2010).

Dramatik diskurs - badiiy asaridagi kognitiv-kommunikativ soha bo‘lib, unda muayyan xalq mentaliteti, etnik xoslanishini til orqali ifodalab beruvchi murakkab jarayon. Dramatik diskursda shaxs fikriy mundariyasi, uning nutqiy vaziyat bilan bog‘liqligi, pragmatik va sotsiopragsmatik xoslanishi real ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Dramatik diskursning lisoniy xususiyatlarini tadqiq qilish terminlarning lingvokulturologik xususiyatlarini o‘rganish, millat hayoti, dunyoqarashi va madaniyatidagi o‘rnini belgilashda ahamiyatlidir (Khursanov, 2022a).

Dramatik nutq murakkab kommunikativ hodisa bo‘lib, u dramada qahramonlar nutqida keltirilgan matnningina emas, balki matnni tushunish uchun zarur bo‘lgan va muallif mulohazalarining subdiskursiga singib ketgan turli paralingvistik omillarni ham o‘z ichiga oladi.

NATIJALAR VA MUNOZARALAR

Umuman olganda, har qanday sharoitda aytilgan so‘zlar qandaydir tarzda nutqiy vaziyatga mos bo‘lishi kerak va u ko‘pincha so‘zlovchining o‘zi yoki muloqotning boshqa ishtirokchilari tomonidan “jismoniy” va “aqliy harakatlar bilan amalga oshishi zarur”. Yana bir asosiy jihati esa bir aytilgan fikrning keyingi fikrga mos bo‘lishi lozimligidadir.

Nutqning pragmatik va sotsiopragsmatik xususiyatlariga bag‘ishlangan yirik tadqiqotlarni amalga oshirgan olimlar J. Ostin va J. Syorlning fikrlari bir-biriga qarama-qarshi (Austin, 1962; Searle, 1969). J. Ostin tomonidan aytilgan fikrlar J. Syorlning nutq aktiga yondashuv nazariyasidan birmuncha farq qiladi. Bundan tashqari, J. Ostin butun ijtimoiy tushunchalarni sotsiopragsmatika omillari sifatida baholaydi. Uning fikriga ko‘ra, rollar, faoliyat, ijtimoiy o‘lchovlar va shunga o‘xshash narsalar sotsiopragsmatikaning diqqat markazida. J. Ostinning fikrini rad etmagan holda aytish mumkinki, u sosiolingvistik haqida emas, balki sotsiopragsmatika haqida fikr yuritadi. J. Ostin sotsiopragsmatikada muayyan jamoa tomonidan qo‘llab quvvatlanadigan fikrlar, muntazam takrorlanib turuvchi va odat tusiga kirgan nutqiy me’yorlarni “shafqat kodekslari” deb aytib o‘tadi va bu muloqot ishtirokchilarining etnik va sosial xoslanishi bilan bog‘liqligini alohida e’tirof etadi (Austin, 1962). Demak, nutqning sotsiopragsmatik jihatdan xoslanishi lingvokulturologik aspektga ham bevosita bog‘liq. Xususan, dramatik diskursda sotsiopragsmatik xususiyatlar til, mentalitet bilan bevosita bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Boshqa janrdagi asarlardan farqli o‘laroq, dramalarda kontekst, nutqning unga muvofiq xoslanganligi nafaqat qahramonlar nutqi orqali, balki muallif tomonidan berilgan izohlar (remarkalar) orqali ham namoyon bo‘ladi. Dramatik diskursda sotsiopragsmatik xususiyatlarni aniqlash imkoni kengroq. O‘zbek tilidagi dramalarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, personajlar nutqining pragmatik va ijtimoiy-pragmatik xususiyatlari quyidagi vositalar orqali namoyon bo‘ladi (Khursanov, 2022a; Khursanov, 2022b).

- Noverbal komponentlarning faol qo‘llanilishi;
- Maqollar qahramonlar nutqining pragmatik dasturini ifodalashi;
- Implikasiya;
- Ironiya.

Sh. Boshbekovning “Temir xotin” dramasida ushbu xususiyatlar quyidagicha namoyon bo‘ladi:

SALTANAT. *Ha, tag‘in keldingizmi, ko‘ch-ko‘roningizni ko‘tarib? Lo‘lida tinim bor, sizda tinim yo‘q? (Qo‘chqorga.) Iye, nega serrayib turibsiz, bir chiqib qarang ularingizning qilgan ishini! (Sh. Boshbekov, “Temir xotin”)*

Ikki qahramonning o‘zaro muloqoti voqelikning mantiqan nimadan boshlanganligidan dalolat beradi. Qo‘chqor obrazining bee‘tiborligi, hayotiy tizginning izdan chiqqanligi va turmush tarzining betartibliigi har ikki qahramon nutqi orqali ifodalanadi:

QO‘CHQOR. *Bilaman, kennoyi, qaramasam ham bilaman... (Gap topolmay.) Shoshmay tursin ular hali!.. Agar yana bir marta shunaqa bo‘lsa...*

SALTANAT. *“...tabaka qivorasiz!” Bilamiz, birinchi marta eshitayotganimiz yo‘q! Anavi kuni makkaning ichidan buzog‘ingizni arang haydab chiqdim! Biram ochofatki, kaltakkayam parvo qilmaydi! “Mol egasiga o‘xshamasa harom o‘ladi” deb ja to‘g‘ri aytishgan ekan!*

Saltanat nutqining pragmatik dasturini to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalaydigan bo‘lsak, quyidagicha holat kuzatiladi:

“...tabaka qivorasiz!” Bilamiz, birinchi marta eshitayotganimiz yo‘q! – bir gapni aytib ustidan chiqmaysiz. Ming marta takrorlagan bilan bajarmaydi;

Biram ochofatki, kaltakkayam parvo qilmaydi. “Mol egasiga o‘xshamasa harom o‘ladi” deb ja to‘g‘ri aytishgan ekan. – ochofat va gapga tushunmaydigan. Molsifat, xarakteri mol.

OLIMJON *(Alomatga karab turib). Iye, bu o‘chib qopti-ku... (Robotning yelkasidagi blokni kavlashtira boshlaydi.)*


QO‘CHQOR. *I! ... O‘chib qopti, deganing nimasi?! Men shuncha gapni kimga gapirdim bo‘lmasam? Butun o‘zbekning dardini dasturxon qilib o‘tiribman! (Xafa bo‘lib.) Doim shu — bizga o‘xshagan odam gapirsa, yo hech kim eshitmaydi, yo eshitadigani temir chiqadi...*

Qo‘chqor obrazining nutqida kommunikativ maqsad kesatish mazmunida ishlatilgan.

OLIMJON. *A? ...*

QO‘CHQOR. *Mayli, “dadasi” kerak emas. “Yaxshi borib keling” desa. Yoki kechqurun charchab kelganingda “yaxshi keldingizmi” desa, a? Mana buni, Olimtoy, qo‘shning qilib berolmaydi-da! (Ilmoqli.) Anglayapsanmi?*

Ingliz adabiyotida nutqning sotsiopragmatik xoslanishini tadqiq qilgan J. Tomas quyidagi atributlarni alohida ajratib ko‘rsatadi (Thomas, 1981).



1-rasm. Sotsiopragmatik jihatdan huquqbuzarlik to‘g‘risidagi hisobotning tarkibiy tahlili

Ushbu ko'rsatilgan atributlarni dramatik diskursga ham taluqli deyish mumkin. Bundan tashqari, quyidagilarni ham dramatik diskursni xarakterlovchi xususiyat deyish mumkin:

Leksik to'siqlar (immm, mm,);

Undov va modal so'zlar.

Albatta, yuqorida ta'kidlangan implikasiya, ironiya, interferensiya, noverballik va verballik ham dramatik diskursda sotsiopragmatik xususiyatni ifodalashga xizmat qiladi.

Xususian:

HELENA: *Hugh?*

ALISON: *Hugh Tanner. He and Jimmy were friends almost from childhood. Mrs Tanner is his mother.*

HELENA: *Oh, yes. – the one who started him off in the sweet business.*

ALISON: *That's right. Well, after Jimmy and I were married, we'd no money – about eight pounds ten in actual fact – and no home. He didn't even have a job. He'd only left the university about a year. (Smiles.) No – left. I don't think one "comes down" from Jimmy's university. According to him, it's not even red brick, but while tile. Anyway, we went off to live in Hough's flat. It was over a warehouse in Poplar. (J. Osbrone, "Look Back in Anger").*

Avvalo, diskursda ishtirokchilarning pozitsiyasini alohida hisobga olish lozim. E.Ochs va L.Kaps hikoya qilish orqali o'z pozitsiyasini egallashga kelsak, "kimdir voqeani aytib berayotganda, so'zlovchi oluvchiga voqeaga kirish imkoniyatini va hikoya qiluvchining ushbu voqeaga nisbatan pozitsiyasini ta'minlaydi" deb ta'kidlaydi (Ochs & Capps, 2001).

Yuqorida ta'kidlanganidek, sotsiopragmatik jihatga muvofiq nutq pragmatik dasturga ega bo'lishi kerak, ya'ni nutqiy mundarija mavjud bo'lishi lozim.

XULOSA

Diskurs mohiyatan kognitiv tilshunoslik termini sifatida nolisoniy omillar bilan birgalikdagi matn, voqea kechishi nuqtayi nazaridan qaralayotgan matndir. Boshqacha qilib aytganda, muayyan maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy harakat va nutqiy faoliyat mahsuli. Diskurs mohiyatini o'rganish uni turli aspektlarda tahlil etish tilning o'ziga xos pragmatik va sotsiopragmatik tuzilishini o'rganish, baholash imkoniyatini yuzaga keltiradi. Bu esa o'z navbatida, lingvokulturologik jihatdan inson lisoniy faoliyati natijasini va uning xarakterli xususiyatlarini ifodalab berishga xizmat qiladi. Shu ma'noda, diskurs - keng mohiyat kasb etadigan termin. Tilshunoslikda diskursning o'rganilishi o'ziga xos murakkab kognitiv faoliyat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Austin J.L. ([1962] 1975). *How to Do Things with Words*. 2nd ed. Edited by J. O. Urmson and M. Sbisà, Cambridge, MA: Harvard University Press. Bucholtz, M. and Hall, K. (2005). Identity and interaction: A socio-cultural linguistic approach. *Discourse Studies*, 7(4/5), 585–614.
2. Davletnazarova, L. B. (2021). Principles of Language Testing and Assessment with its Appliance in Evaluation of Exam Tasks. In *СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ* (pp. 26-28).
3. Dijk, T. A. van. (1998). *Ideology: A multidisciplinary approach*. Sage Publications.
4. Francis, F. (2023). *Dramas* [From Wikipedia, the free encyclopedia]. *Dramas*.
5. Harris, Z. S. (1970). Discourse Analysis. B *Papers in Structural and Transformational Linguistics* (cc. 313–348). Springer Netherlands. https://doi.org/10.1007/978-94-017-6059-1_19
6. Khursanov, N. I. (2022a). The Ratio of Verbal and Non-verbal Components in Dramatic Discourse (on the Example of Works in Uzbek and English). Abstract of Dissertation for PhD. Andijan State University. – Andijan. – p. 26.
7. Khursanov, N. I. (2022b). Linguopragmatic Characteristics of Stylistic Units Used in Uzbek and English Dramas. *UzA-National Information Agency of Uzbekistan*, 4(4), 2022.
8. Kifayat Ullah. (2020). *Drama (Introduction)*. <https://doi.org/10.13140/RG.2.2.22661.50400>

9. McEvoy, S., Coult, T., & Sandford, C. (2009). *Tragedy: A student handbook*. English and Media Centre.
10. Ochs E., and Capps L. (2001). *Living Narrative*. – Cambridge, MA: Harvard University Press.
11. Thornborrow, J. (1995). Deborah Schiffrin, *Approaches to discourse*. Cambridge, MA & Oxford: Blackwell, 1994. Pp. x + 470. *Journal of Linguistics*, 31(1), 193–194. <https://doi.org/10.1017/S0022226700000700>
12. Raupova, L. R., Normurodova, N. Z., & Khursanov, N. I. (2021). Discourse: Pragmatic Features in its Expression in Literary Works. In International Conference “Uzbek Language Development and International Cooperation (No. 01, pp. 21-32).
13. Searle, J. R. (1969). *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. – Cambridge: Cambridge University Press.
14. Karasik, V. I. (2004). *Jazykovoĵ krug: Ličnost', koncepty, diskurs. Gnozis*.
15. Tkhorik, V. I., & Faniān, N. I. (2006). *Lingvokul'turologiiā i mezhkul'turnaiā kommunikatsiia* (2-e-e izd. изд.). GIS.
16. Thomas J. (1981). *Pragmatic failure*, unpublished MA dissertation, University of Lancaster.
17. Thomas, J. (1983). Cross-cultural pragmatic failure. *Applied Linguistics*, 4(2), 91–112.
18. John Osborne. *Look Back in Anger*. First published in 1957 by Faber and Faber Limited 3 Queen Square, London, W.C.I.
19. Ušakov, D. N., & Vinokur, G. O. (Ред.). (2001). *Tolkovyj slovar' russkogo jazyka: V 3 t. 1: A - M / [Ušakov, Dmitriĵ Nikolaevič ; Vinokur, Grigorij Osipovič] (Pečataetsja s izmenenijami i ispr. po izd. Moskva, 1935-1940, T. 1-4). Vece [u.a.]*.
20. Арутюнова Н.Д. *Дискурс. Лингвистический энциклопедический словарь*. – М.: Советская энциклопедия. 1990. – с. 136-137.
21. Арутюнова, Н. Д. (1990). *Дискурс. Лингвистический энциклопедический словарь. Советская энциклопедия* (pp. 136-137).
22. Зиньковская А.В. (2010) *Английский драматургический дискурс как структура и объект интерпретаций в переводах на русский язык: Монография. [Текст] Краснодар: Просвещение-Юг. С. – 233.*
23. Карасик В.И. (2000) *О типах дискурса // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс: сб. науч. ст. – Волгоград. – С. 5-20.*
24. Николаева Т.М. *Краткий словарь терминов лингвистики*. – М.: Прогресс, 1978. – С. 480.
25. Нормуродова Н.З. (2012) *Выражения языковой личности в художественном диалоге (на материале английского языка). Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Самарканд. – 26 с.*
26. Почепцов Г.Г. *Высказывание и дискурс в прагмалингвистическом аспекте: Сб. научн. тр. / Г.Г. Почепцов. – Киев: КГПИИЯ, 1989. –114 с.*
27. Серио П. *Почему Бахтин-не Пешё? Об одном большом недоразумении по поводу анализа дискурса. Язык, коммуникация и социальная среда. 2012(10):8-21.*
28. Степанов Ю.С. *Альтернативный мир, Дискурс, Факт и принцип Причинности [Текст] // Язык и наука конца XX века. Сб. ст. / Под ред. Ю.С. Степанова. – М.: РГГУ, 1995 – С. 35-73.*
29. Хализев В. Е. *Драма как явление искусства. [Текст] — М.: Искусство, 1978. – С. 240.*
30. Ernazarova M.S. *Grammatik ma'no lisoniy va pragmatik omillar yaxlitligida. Fil.fan.dok. Diss. – Samarqand. 2018. 227 b.*
31. Raupova L. *Dialogik diskursda milliy mental omillarning namoyon bo'lishi. Vestnik Karakalpakskogo gosudarstvennogo universiteta imeni Berdaxa. 2010 Dec 3;9(3-4):107-10.*
32. Raupova L.R. *Qo'shma gap diskursning tarkibiy qismi sifatida. Monografiya. – Toshkent: 2021. – 192 b.*
33. Safarov Sh. *Nutq lingvistikasining tekshiruv obyekti nimadan iborat// Nutq lingvistikasi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. - Samarqand, 2006. – B.4.*
34. Safarov Sh. *Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008, – 318 b.*

34. Sayfullayev R., Mengliyev B., Bakiyeva S., Kurbanova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Modern Uzbek language. Tashkent: Science and Technology. 2009.
35. Said Ahmad. Kelinlar qo‘zg‘oloni (komediya). www.ziynet.uz kutubxonasi

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 1 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 6, НОМЕР 1

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 6, ISSUE 1

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000